Atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik delegatsiyasi tashrifi

O'zR FA Yadro fizikasi institutiga Atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik bosh direktori o'rinbosari, Kafolatlar departamenti rahbari Massimo Aparo boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Mehmonlarni O’zR FA prezidenti Behzod Yuldashev kutib oldi va o’zaro hamkorlik masalalari, kelgusidagi rejalar muhokamasiga bag’ishlangan uchrashuv o’tkazildi.

Mehmonlar Institut va yadro reaktori faoliyati, olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Ma’lumot o’rnida, Kafolatlar departamenti yadro nazorati bo'yicha xalqaro organ sifatida Atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik (IAEA)ning funksiyalari va vazifalarini bajaradi hamda yadroviy qurollar tarqalishining oldini olish bo'yicha global sa'y-harakatlarga hissa qo'shadi.

Departamentning asosiy vazifasi IAEA xavfsizlik choralarini qo'llash va amalga oshirishdir. Shuningdek, u tegishli kelishuvlar va ularni amalga oshirishga oid tekshiruv so'rovlariga javob berish va boshqa texnik yordam ko'rsatish orqali yadro qurollarini nazorat qilish va qurolsizlanishni targ'ib qiladi.